

AHMAD A'ZAM

QULF TILI

Novella

Odam uyidan chiqdi, eshigini berkladi — o'zining orniga qulfni ega qoldirdi.

Qulf butun boshli uyga, uydagi mulkka ega chiqqanidan hushyor tortib, eshikni itarsa ham, tortsa ham ochilmaydigan qilib, mahkam tishlab turaverdi.

Uy egasining uyda yoqligidan bexabar odamlar uni yoqlab keldilar: undan olgan qarzini bermoqchi bo'lib dost keldi, unga bergan qarzini olmoqqa cho'g'lanib dost dushman bo'lib keldi, unga tegaman degan qiz keldi, orani biryoqli qilmoqchi bo'lib juvoi keldi, irga ko'raman, deb bir xotin keldi, mehmonga chorlamoqchi bo'lgan tanish keldi, mehmon bo'lishga cho'g'langan notanish keldi, zerikkanidan qaerda laqillashni bilmay yurgan bir birodari aziz ham kelib ketdi...

Qulf bularning hammasiga qors muomala qildi, eshikni itarsalar ham, tortsalar ham mahkam tishlab turaverdi. Ketinglar, uy ochilmaydi, deb aytishga ham cho'g'landi, lekin o'gzini ochsa, eshik ham ochilib ketishini bilib, jim turaverdi.

Odamlarning har biri eshikni itarib-tortib ko'rishdi, egilib tirqishdan qarashdi, balki uy egasi dunyodan voz kechib, ustidan qulflab yotib olgandir, deb chaqirib ham ko'rishdi. Unga tegaman degan qiz qachon kelishini men uchun biron qo'g'ozga yozib, qistirib ketgandir, deb eshikning ziylarigacha qarab chiqdi, kelib qolar balki, deb ancha mahtal turdi ham.

Birodari aziz: "Hoy falonchi, men falonchiman, uyda bo'lsang, kop tarang qilmay, och eshikni, zerikib ketyapman-ku", deb baqirib ham kordi...

Qulf uyda egasi yoqligini bilib tursa ham, ularga tushuntirmadi, qani, tuyoqlaringni shiqirlatinglar, demoqchi ham bo'ldi-yu, ammo shiqirlashdan cho'chidi; shiqirlashdan boshqa so'zni ham bilmas edi, bilganda tishining orasidan bir narsa derdi...

Chunki bu odamlarning hammasi unga ajnabiy edi.

Songra bir mushuk keldi, eshikning ziyiga moylovlarini suykadi, bu ochiladigan tuynukmi, ochilmaydiganmi, deb mushuk aqli bilan oylanib qoldi. Mushuk vaqtini bekorga ketkazmaydigan xop savodxon edi: eshikdan kelayotgan hidlarni gosht, qazi, hasip, pishloq, deb sharros oqib tashladi, ayniqsa sichqon degan hidni zavq bilan mutolaa qildi.

U eshikka ichidagi shundoq mazali sarguzasht ustidan yopilgan katta kitob muqovasiga qaragandek termilib, kop afsusli miyovladi.

Qulf shundoq oqimishli mushukning ilmini nazarga ilmay, bez bo'lib turaverdi.

Lo'killab bir koppak ham keldi. Kela solib mushukka tashlandi. He yo'q, be yo'q, birdan bo'lgan bu hujumdan dovdirab qolgan mushuk pixillagancha tomga otildi.

Koppak ko'chada, mushuk tomda, dod-muomalani boshlashdi.

Topori koppak mushukdan nima yomonlik ko'rganini o'zi ham bilmay, xop so'kindi, mushukning etti pushtini tuproqqa teng qildi, tarbiya ko'rgan muhtaram mushuk esa bir-ikki marta yozgirdi, xolos. Dod-muomalaning mazmuni shunday edi: koppak mushukka o'zining koppak tilida: "He katta buvangni... xushomadgoy, aldoqchi... odamlarning qo'gircho'gi, sichqonparast, padari qusur... falon-pismadon mushuk, past —doim mushukligingga borasan, postiningni burdalab tashlamasam, koppak otimni boshqa qoyaman", deb doq urayotgan, mushuk esa: "Pandavaqi! yuvindixor! Eganing — sarqit, o'zing gor bo'larmiding, basharangga qara — mushuk uyaladi", deb mushukchalab uzib-uzib olayotgan edi.

Qulf esa bu g'altvadan boshi qotib, zingrayib turaverdi.

Bu voqea ko'p takrorlangani, sal o'tmay yana qaytarilishini bilgani uchun koppak ham, mushuk ham ko'p asabiylashmay, shunchaki yo'lga manjashib turishdida, keyin ikkalasi ikki tomondan: mushuk tomdan, koppak ko'chadan ketnsildi.

Gap shundaki, koppak ham, mushuk ham o'z tilida gapirishgan bo'lsa-da, ikkalasi ham bir-birini juda yaxshi tushunishardi, chunki ikkalasi ham bir ko'channing fukarosi edi.

Ammo ikkalasi xam qulfga ajnabiy, negaki ular qulfnpg mulkida yashamas, shundan qulf ularning tilin bilmas edi.

Kocha huvillab qoldi.

Qulf eshikni maxkam tutib turaverishdan zerikdi. Men bo'lmasam, bu eshik qanday kun ko'rar ekan, ochilib yopilaverganidan esi o'g'ib qolsa kerak, deb oyladi.

yaxshi hamki, men bor — tartib bor, deb mamnun ham bo'ldi. Lekin mamnunligiini nimaga izhor qilishini bilmay, battar zerikdi.

...Keyin ko'zlari alang-jalang bir kimsa keldi, egilib qulfga mehr bilan termildi.

Qulf sal bo'lmasa, o'g'iz ochib gapirib yuboray, dedi. Lekin bu kimsa ham tilimni tushunmaydi, degan oyda jim qotdi.

Kimsa boshqalarga oxshab eshikni itarib-tortib kormadi, egilib tirqishdan qaramadi, chontagidan qulflarning so'zi shoda-shoda tizilgan sim halqani chiqardi — bu qulf tilining lu'gati edi, shu bilan uni gapga soldi.

Izlay-izlay kerakli so'zni topdi, shu so'zni qulfga ohista aytirdi... Hatto uyning egasi ham qulfga bunday yumshoq muomala qilmas, uni shaqir-shuqur qilib gapirtirar edi...

Bu kimsa qulfni shunaqa ardoqlab, shunaqa hurmatini joyiga qoydiki... qulfning boshi aylanib ketdi.

Axir, bu kimsa qanaqadir tarbiyasiz bir koppak yoki tarbiyali bo'lsa ham, mushuk emas, hatto odam ham emas edi-da!

Bu kimsa qulfga ajnabiy ham emas edi.

Bu kimsa oddiy qulfbuzar oğri edi.